

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK:  
NAZARIY MODEL, HUQUQIY KONSTRUKTSIYALAR VA BOSHQARUV  
MEXANIZMLARI**

**Saidov Sharofiddin Abdugʻaniyevich**

Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18361313>

**Annotatsiya.** Maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining nazariy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot DXShning huquqiy tabiati, xavfsizlik sohasida davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari hamda xususiy sektor ishtirokini legitimlashtiruvchi normativ mezonlar o'rtasidagi muvozanatni asoslashga qaratilgan. Maqolada DXSh loyihalarining institutsional arxitekturasini, vakolat va mas'uliyat taqsimoti, risklarni boshqarish, shartnomaviy dizayn, moliyalashtirish va kafolat mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, KPI/SLA asosida natijadorlikni baholash, davlat nazorati va audit instrumentlari, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi komplaens, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi hamda kiberxavfsizlik talablarini DXSh munosabatlariga integratsiya qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Xulosa qismida jamoat xavfsizligi sohasida DXShning huquqiy barqarorligini kuchaytirish bo'yicha konseptual takliflar ilgari suriladi.

**Kalit soʻzlar:** davlat-xususiy sheriklik; jamoat xavfsizligi; nazariy model; huquqiy konstruktsiya; risklarni taqsimlash; shartnoma dizayni; KPI/SLA; davlat nazorati; komplaens; kiberxavfsizlik.

**Аннотация.** В статье анализируются теоретико-правовые основы применения государственно-частного партнёрства (ГЧП) в обеспечении общественной безопасности. Исследование направлено на обоснование баланса между конституционной обязанностью государства по обеспечению безопасности и нормативными критериями, легитимирующими участие частного сектора. Рассматриваются институциональная архитектура проектов ГЧП, распределение полномочий и ответственности, управление рисками, договорный дизайн, финансовые модели и механизмы гарантий. Отдельное внимание уделено правовому значению KPI/SLA при оценке результативности, инструментам государственного контроля и аудита, требованиям прозрачности и антикоррупционного комплаенса, а также интеграции стандартов защиты персональных данных и кибербезопасности в договоры ГЧП. В заключении формулируются концептуальные предложения по укреплению правовой устойчивости ГЧП-инициатив в сфере общественной безопасности.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнёрство; общественная безопасность; теоретико-правовой подход; договорный дизайн; распределение рисков; KPI/SLA; государственный контроль; комплаенс; защита данных; кибербезопасность.

**Abstract.** This article examines the theoretical and legal foundations of using public-private partnerships (PPPs) to enhance public safety. The study focuses on balancing the state's constitutional duty to ensure public safety with regulatory criteria that legitimize private-sector involvement. It discusses the institutional architecture of PPP projects, the allocation of powers and liabilities, risk management, contract design, financing and guarantee mechanisms.

*Particular attention is given to the legal role of performance management tools (KPIs/SLAs), public oversight and audit, transparency and anti-corruption compliance, and the integration of personal data protection and cybersecurity standards into PPP arrangements.*

*The article concludes with policy-oriented implications for strengthening the legal certainty and institutional resilience of PPP-based public safety initiatives.*

**Keywords:** *public–private partnership; public safety; theoretical and legal approach; contract design; risk allocation; KPIs/SLAs; public oversight; compliance; data protection; cybersecurity.*

Jamoat xavfsizligini ta'minlash zamonaviy davlat boshqaruvida eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, u nafaqat huquqni muhofaza qilish organlarining klassik vakolatlari, balki infratuzilma, texnologiya va servis xizmatlarining uzluksiz ishlashini ham talab etadi.

Raqamli transformatsiya, urbanizatsiya, kiberxavflarning kuchayishi hamda xavfsizlikka bo'lgan ijtimoiy talabning ortishi sharoitida davlat resurslarining cheklanganligi DXSh mexanizmlarini amaliy va nazariy jihatdan dolzarb qiladi. Biroq xavfsizlik sohasiga xususiy sektorni jalb etish masalasi huquqiy legitimlik, vakolatlar doirasi, shaffoflik, javobgarlik, ma'lumotlar himoyasi hamda manfaatlar to'qnashuvi kabi masalalarni keskinlashtiradi. Shu sababli mazkur maqolada jamoat xavfsizligi doirasida DXShning nazariy modeli va huquqiy konstruksiyalarini aniqlash, risklarni taqsimlash va natijadorlikni baholash mexanizmlarini (KPI/SLA) huquqiy mezonlar asosida asoslash hamda jamoat manfaatini ustuvor qo'ygan boshqaruv yondashuvlarini taklif etish maqsad qilinadi.

Mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish sohasiga alohida ahamiyat berilmoqda. “2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish”<sup>1</sup> ustuvor yo'nalish sifatida belgilanganligi, milliy xavfsizlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishni, Jamoat xavfsizligini ta'minlashni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etishni, davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini ilmiy tadqiq etish zarurligini taqozo etmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish masalasini yoritishdan oldin, “jamoat tartibi”, “jamoat xavfsizligi” va davlat-xususiy sherikchilik” tushunchalarini qo'llash sohasi va obyektlarining farqlari va o'zaro bog'liqligi haqida turli fikr va mulohazalarni tahlil etish maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash joizki, tadqiqot ishlarini tahlil qilish natijasida huquqshunos olimlar “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalarini qo'llash sohasi va obyektlarining farqlari va o'zaro bog'liqligi haqida turli fikr va mulohazalarni bildiradilar.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>.

Jumladan, “jamoat xavfsizligi”ni B.T.Xamxoev “boshqa odamlar hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, mansabdor shaxslar yoki ayrim fuqarolarning aybi bilan bog‘liq binolar, inshootlarning vayron bo‘lishi yoki shikastlanishi natijasida boshqalar uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan oqibatlarining oldini olish maqsadida davlat tomonidan belgilangan maxsus tashkiliy-texnik qoidalarga qat’iy rioya qilish va amalga oshirishga asoslangan munosabatlar tizimidir” mazmunida, avstriyalik olim I.Peters “shaxs tomonidan jamiyatda yurish-turishning barcha tartibga solingan va yozilmagan qoidalariga rioya qilishi, shuningdek davlat va fuqarolarning o‘zaro bir makonda faoliyat yuritishi va yashashining asosiy sharti bo‘lgan qoidalarining majmui” mazmunida baholagan bo‘lsa, rus olimlari G.A.Tumanov va V.I.Friskolar “jamoat xavfsizligi” tushunchasini inson hayoti, sog‘lig‘i, moddiy qadriyatlari va atrof muhitga xavf soladigan tahdidlarni oldini olish va bartaraf etish maqsadida huquqiy va tashkiliy-texnik me‘yorlar bilan tartibga solinadigan yuqori darajadagi vositalar bilan, L.M.Rozin esa, jamiyat uchun xavf solish darajasi yuqori bo‘lgan tabiiy va boshqa favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq maxsus sharoitlarni yuzaga keltiruvchi munosabatlar tizimi bilan bog‘laydi<sup>2</sup>.

Ba‘zilar jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini bir xil tushunchalar deb hisoblashadi, boshqalari jamoat tartibini jamoat xavfsizligidan kengroq deb hisoblashadi, boshqalari esa jamoat xavfsizligini jamoat tartibidan ko‘ra kengroq tushunchadir deb ta’kidlaydilar. Xususan, huquqshunos olim D.M.Mirazov “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari o‘rtasidagi sezilarli farqlar ushbu hodisalarni tartibga solishning me‘yoriy vositalari bilan bog‘liqligini, Ye.V.Samanyuk “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini, A.V.Tochka “jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi bir yo‘nalishda harakat qiladi, jamiyatning normal mavjudligini ta‘minlaydi va ijtimoiy mexanizmning barcha tarkibiy qismlari kabi bir-biriga bog‘liq”<sup>3</sup>ligini ta’kidlagan.

Professor M.X.Rustambaevning ta’kidlashicha, “jamoat tartibi – fuqarolarning xavfsizligi va tinchligini, boshqalarning mol-mulkini saqlashni, davlat, jamoat va boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning normal ishlashini ta‘minlaydigan odamlar o‘rtasidagi huquq va axloqiy munosabatlarga asoslangan tartib”, “jamoat xavfsizligi jamiyat hayotining xavfsiz shartlaridir, ya’ni fuqarolarning daxlsizligi, hayoti va sog‘lig‘ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini, har qanday davlat yoki jamoat tuzilmalarining normal ishlashini ta‘minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir”<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> *Хамхоев Б.Т.* Проблемы определения общественной безопасности. Административное право и процесс, 2011, №7. Peters I. Lehrbuch der Verwaltungsrecht. – Frankfurt a/M., 1999. – С.377. Туманов Г.А., Фризко В.И. Общественная безопасность и ее обеспечение в экстремальных условиях // Советское государство и право. 1989. № 5. С. 5–23. Розин Л.М. Вопросы юрисдикционной деятельности органов внутренних дел. Административное право / под ред. Л.Л.Попова. М., 1983. 178 с.

<sup>3</sup> *Mirazov D.M.* Theoretical analysis of the concepts of public order and public safety: their relationship and difference // Scientific-practical journal of “Public safety”. – 2022. – №1. – P. 64. Точка А.В. Преступления против общественного порядка: криминализация, систематизация, уголовно-правовое содержание: дисс. к. ю. н. – Краснодар, 2014. – С. 70.

<sup>4</sup> *Рустамбаев М.Х.* Курс уголовного права Республики Узбекистан. Особенная часть. Том 5: Преступления против правосудия, общественной безопасности и общественного порядка, порядка несения военной службы. Учебник для ВУЗов. 2-е издание, дополненное и переработанное – Т.: Военно-технический институт Национальной гвардии Республики Узбекистан, 2018. – С.60.

F.K.Xujamberdiev tomonidan “jamoat xavfsizligi” tushunchasiga “shaxslar, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini ro’yobga chiqarish hamda aholini har qanday tajovuzlardan himoya qilishning, o’zida xavfsizlik, sog’liq va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimlarini mujassam etuvchi holatidir”<sup>5</sup> mazmunida mualliflik ta’rifi berilgan.

Jamoat xavfsizligi masalasi dunyoning barcha davlatlari tomonidan eng ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Zamonaviy dunyoda urushning yangi shakllari (axborot, gibril va boshqalar) paydo bo’lishi munosabati bilan bu muammoning ahamiyati har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda<sup>6</sup>.

Darhaqiqat, bugungi globalashuv jarayonida mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tushunchasi keng qo’llanila boshlandi, bunga asosiy omillar etib quyidagilarni ko’rsatishimiz mumkin:

*birinchidan*, insoniyat duch kelayotgan umumbashariy muammolar, jumladan: ekologik muammolar, pandemik kasalliklar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, narkotrafik kabi transmilliy jinoyatlar va boshqalar. 2019 yilda boshlangan Covid-19 koronavirus pandemiyasi bunga yaqqol misol bo’la oladi. Rasmiy ma’lumotlarga ko’ra 2023 yilning 9 mart kuniga qadar butun dunyoda Covid-19 koronavirus infeksiyasining turli shtamlari bilan zararlangan insonlarning soni 681.210.573 kishini, vafot etganlar esa 6.809.440 kishini tashkil qiladi<sup>7</sup>.

*ikkinchidan*, so’ngi yillarda tobora kuchayib va ko’payib borayotgan rangli inqiloblar, davlat to’ntarishlari, ommaviy tartibsizliklar, jumladan Suriya<sup>8</sup>, Turkiya<sup>9</sup>, Liviya<sup>10</sup>, Ukraina<sup>11</sup>, Belarus<sup>12</sup>, Qozog’iston<sup>13</sup> va boshqa davlatlarda sodir etilgan rangli inqiloblar va davlatlarni to’ntarishga urinishlarni misol tariqasida keltirib o’tishimiz mumkin. Ma’lumotlarga qaraganda, 2000 yilda hozirgi kunga qadar 50ga yaqin inqiloblar (rangli inqiloblar) va davlat to’ntarishlari sodir bo’lgan, buning natijasida millionlab insonlar qurbon bo’lgan, BMTning rasmiy ma’lumotlariga ko’ra 2020 yilning oxiriga kelib yer yuzidagi qochqinlar soni 82,4 mln kishini tashkil qilgan bo’lsa, 2021 yilga kelib

<sup>5</sup> Хўжамбердиев Ф.К., Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Юрид.ф.ф.д.(PhD) автореф. ЎР ЖХУ, 2023.

<sup>6</sup> М.Б.Қодиров, Қ.А.Мақсудов “Миллий гвардия тизимида жамоат хавфсизлиги таъминлашнинг назарий методологик таҳлили” // Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети. Жамоат хавфсизлиги илмий-амалий журнал. 2022, 1-сон. Б.83.

<sup>7</sup> <https://index.minfin.com.ua/reference/coronavirus/geography/>(мурожаат санаси 24.04.2022 йил);

<sup>8</sup> Манойло А.В. Сирийский тупик «Арабской весны» научная статья. // <https://cyberleninka.ru/> (мурожаат санаси 11.08.2023 йил);

<sup>9</sup> Военный переворот в Турции: хроника событий и последствия // <https://realnoevremya.ru> (мурожаат санаси 11.08.2023 йил);

<sup>10</sup> Крупин С.В. «Арабская весна» для Муаммара Каддафи И Башара Асада научная статья. // <https://cyberleninka.ru/> (мурожаат санаси 11.08.2023 йил);

<sup>11</sup> Чемиш А.А. Украинский проект: от политического романтизма к национальной катастрофе научная статья. // <https://cyberleninka.ru/> (мурожаат санаси 11.08.2023 йил);

<sup>12</sup> Парма Р.В., Давыдова М. А., Сушкевич М. А., Копытина Е. А. Социальные и политические факторы массовых политических протестов в Российской Федерации и Республике Беларусь 2020–2021 ГГ. Известия ТулГУ. Гуманитарные науки. 2021. Вып. 4, научная статья. // <https://cyberleninka.ru/> (мурожаат санаси 11.08.2023 йил);

<sup>13</sup> Протесты в Казахстане материалы свободной энциклопедии // <https://ru.wikipedia.org> (мурожаат санаси 11.08.2023 йил).

bo' ko'rsatkich 84 mln kishini va 2022 yilning oxiriga kelib bu ko'rsatkich 108.4 mln kishini tashkil qilgan<sup>14</sup>.

*uchinchidan*, ommaviy migratsiya va axborot almashish jarayonlarining kengayib hamda tezlashib borayotganligi ham jinoyatchilikning, xususan uning xalqaro uyushgan shakllarining kengayib borishiga xizmat qilmoqda.

Bunday vaziyatda jamiyatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Darhaqiqat, "jamoat xavfsizligi" va "jamoat tartibi" tushunchalari bilan bir qatorda so'ngi yillarda yangi tushuncha sifatida yangrayotgan "davlat-xususiy sherikchilik" sohasi bo'yicha ko'plab insonlarda, hattoki yuristlar orasida ham bir qator savollar tug'ilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, "*davlat-xususiy sheriklik*" tushunchasiga "davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi"<sup>15</sup> mazmunida huquqiy ta'rif berilgan.

Davlat-xususiy sheriklik instituti vujudga kelganidan beri dunyodagi tobora ko'proq hukumatlar ushbu siyosatni amalga oshirishga, ayniqsa, jamoat xavfsizligi sohasiga katta qiziqish bildirmoqda. Biroq, davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish darajasi hamma yerda bir xil emas. Ba'zi mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik bozorining sezilarli darajada o'sib borayotgani kuzatilmoqda, boshqalarida esa uni amalga oshirish uchun hali qulay sharoit ham, zarur siyosat ham yaratilmagan deb xisoblashadi.

Hozirgi vaqtda davlat va xususiy sektor o'rtasida yaxshi muvofiqlashtirilgan sheriklik bo'lmasa, davlatning strategik maqsadlariga erishib ham, uni barqaror rivojlantirib ham bo'lmasligi tobora ravshanlashib bormoqda. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohada davlat-xususiy sheriklikning dolzarbligi bugungi globallashuv hamda fan va texnika taraqqiyoti, Internet va ijtimoiy tarmoqlarning kengayib borayotgani bilan bog'liq. Bugungi sharoitda fuqarolar hayoti va mol-mulkining xavfsizligini ta'minlash, ularni turli tahdidlardan muhofaza qilish, ijtimoiy muhitning tinch va barqaror bo'lishiga erishish, jamoat xavfsizligi sohasida yuqori natijalarga erishish vazifalari davlat va xususiy sheriklarning o'zaro hamkorligini yanada dolzarblashtirmoqda.

Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha milliy tajribada davlat-xususiy sheriklik samarali tatbiq etilmagan. Jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida huquqiy tartibga solishning samarali shakllarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki, jahon tajribasini hisobga olgan holda, aynan davlat-xususiy sheriklik mamlakatda barcha sohalar kabi, jamoat xavfsizligini samarali ta'minlashni hal etish imkonini beradi.

<sup>14</sup> <https://www.unhcr.org/ru/stats//> Агенство по делам беженцев ООН (России)

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Давлат-хусусий шериклик тўғрисида"ги қонун // lex.uz/docs/4329270.

Biroq, O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonun<sup>16</sup> va boshqa qonunchilik milliy bazasiga qaramay, O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik samaradorligi hozirgi kunda yetarlicha rivojlanmagan. Bu holat qonunchilikka tuzatishlar kiritish orqali davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Muammoning mohiyatini tushunish uchun huquqiy va tartibga soluvchi manbalarga, shuningdek, ilmiy adabiyotlarda "davlat-xususiy sheriklik" atamasining bir qancha talqinlariga murojaat qilaylik.

V.G.Varnavskiy ta'kidlaganidek, davlat-xususiy sheriklikning asosi faqat yirik, ijtimoiy ahamiyatga ega loyiha bo'lishi mumkin<sup>17</sup>. V.V.Gorovenko va D.A.Samolov sheriklikning uzoq muddatli xarakterini qo'shimcha ravishda davlat-xususiy sheriklik sohasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyati sifatida ta'kidlaydilar, "bu doirasida tomonlarning bunday munosabatlarda ishtirok etish xavfi taqsimlanadi"<sup>18</sup>. L.A.Izgalina "hamkorlikning barcha tomonlari, shu jumladan mahalliy hamjamiyatlarning manfaatlarini inobatga olgan holda" davlat-xususiy sheriklikni yaratish bo'yicha qaror qabul qilishda shaffoflik zarurligini ta'kidlaydi<sup>19</sup>.

Darhaqiqat, ushbu fikrga qo'shilgan holda, fikrimizcha, jamoat xavfsizligini samarali ta'minlashda mahalliy hamjamiyatlarning manfaatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. S.A.Ovchinnikov va M.D.Zemskovlarning fikricha, dastlab har qanday davlat-xususiy sheriklik loyihasining eng muhim xatarlaridan biri uning moliyaviy nochorligidir<sup>20</sup>.

#### **Davlat-xususiy sheriklikka oid atamalarning mazmuni<sup>21</sup>**

<b>Davlat-xususiy sheriklik</b>	Davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi;
<b>Davlat-xususiy sheriklik loyihasi</b>	Iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui;
<b>Davlat-xususiy sheriklik</b>	Davlat sherigi va (yoki) xususiy tashabbuskor tomonidan tayyorlanadigan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Давлат-хусусий шериклик тўғрисида"ги қонун // lex.uz/docs/4329270.

<sup>17</sup> Варнавский В.Г. Государственно-частное партнерство. М., 2009.

<sup>18</sup> Горovenko В.В., Самолов Д.А. Концессионное соглашение и соглашение о государственно-частном партнерстве как договорные формы государственно-частного партнерства // Академический вестник. 2014. № 4. – С. 70.


<sup>19</sup> Изгалина Л.А. Глобальный кризис и механизмы государственно-частного партнерства // Власть. 2009. № 10. –С. 84.

<sup>20</sup> Овчинников С.А., Земсков М.Д. Риски государственно-частного партнерства в электронном правительстве и их определение // Информационная безопасность регионов. 2013. № 1.

<sup>21</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 10 майда имзоланган "Давлат-хусусий шериклик тўғрисида" ЎРҚ-537-сонли Қонуни. Қонунчилик палатаси томонидан 2019 йил 26 апрелда қабул қилинган, Сенат томонидан 2019 йил 3 майда маъқулланган. – 3-модда.

<b>loyihasining konsepsiyasi</b>	oshirishni hal etishga doir tanlovni asoslab beradigan, ushbu loyiha qiyamatini va tavsifini belgilaydigan, uni amalga oshirishning samaradorligi va dolzarbligi asoslarini, asosiy tavsifnomalari va o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek jalb qilinadigan investitsiyalarning qaytarilishini ta'minlash mexanizmlarini o'z ichiga olgan hujjat;
<b>Davlat-xususiy sheriklik obyekti</b>	Loyihalashtirilishi, qurilishi, barpo etilishi, yetkazib berilishi, moliyalashtirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiyalashtirilishi, foydalanilishi va xizmat ko'rsatilishi davlat-xususiy sheriklik loyihasini ro'yobga chiqarish doirasida amalga oshiriladigan mol-mulk, mulkiy komplekslar, ijtimoiy infratuzilma, shuningdek davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida joriy etilishi lozim bo'lgan ishlar (xizmatlar) va innovatsiyalar;
<b>Davlat sherigi</b>	O'zbekiston Respublikasi bo'lib, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan boshqa organlar (tashkilotlar) yoki ularning birlashmalari uning nomidan ish yuritadi;
<b>Davlat-xususiy sheriklik obyektidan erkin foydalanilishi uchun to'lov</b>	Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq davlatxususiy sheriklik obyektidan foydalanish (uni ekspluatatsiya qilish) va (yoki) ushbu obyektga xizmat ko'rsatish davrida undan erkin foydalanilishini ta'minlaganlik uchun xususiy sherikka davlat sherigi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar;
<b>Foydalanganlik uchun to'lov</b>	Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilardan davlatxususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish doirasida xususiy sherik tomonidan yig'ib olinadigan to'lovlar
<b>Xususiy sherik</b>	O'zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qo'nun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan, davlat sherigi bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzgan tadbirkorlik faoliyati subyekti va shunday subyektlarning birlashmasi.

DXSh ishtirokchilari ham qonun doirasida faoliyat ko'rsatish uchun, belgilangan tartibda birlashadi. Bularning o'zaro bog'liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. DXSh ishtirokchilarining o'zaro bog'liqligi

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining aksariyati, davlat organlari bilan kelishilgan holda sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi va boshqa ijtimoiy sohalarda xususiy investorning mablag'larini jalb qilish tizimi asosida amalga oshirilmoqda. Binobarin, xususiy sherik jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida davlat-xususiy sheriklik loyihasini boshlash bosqichida uni muvaffaqiyatli va sifatli amalga oshirish uchun yetarli miqdorda o'z moliyaviy resurslariga ega emas. Tahlilni hisobga olgan holda, biz jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat-xususiy sheriklikning samarali va barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan qonunchilгимizning muammoli jihatlari tahlil qilamiz.

Bizni fikrimizcha, **“jamoat xavfsizligini davlat xususiy sheriklik asosida ta'minlash** bu – davlat mamlakat hayotida aholi tinchligi va farovonligini shuningdek, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa yo'nalishlardagi kompleks chora-tadbirlarni yozma shartnoma asosida yuridik tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirishdir”.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish, resurslarni safarbar etish, infratuzilma va texnologiyalarni tez joriy etish hamda servis xizmatlari sifatini oshirish nuqtayi nazaridan amaliy samaradorlikka ega. Biroq xavfsizlik sohasi “davlatning eksklyuziv vakolatlari” bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli DXSh faqat aniq huquqiy chegaralar va qat'iy boshqaruv kafolatlari asosida yo'lga qo'yilgandagina legitim va barqaror natija beradi. Shu ma'noda, DXShni jamoat xavfsizligida qo'llash uchun: (1) davlat vakolatlari va xususiy sherik funksiyalarini normativ darajada aniq ajratish; (2) risklarni taqsimlash, javobgarlik va kompensatsiya mexanizmlarini shartnomalarda standartlashtirish; (3) KPI/SLA asosidagi natijadorlikni baholashni huquqiy mezonlarga bog'lash; (4) davlat nazorati, audit va shaffoflik instrumentlarini kuchaytirish; (5) shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik va korrupsiyaga qarshi komplaens talablarini DXSh shartnomalarining majburiy tarkibiy qismiga aylantirish zarur. Natijada, DXSh jamoat xavfsizligi tizimida “davlat manfaatlar — fuqarolar huquqlari — xususiy sektor samaradorligi” muvozanatini ta'minlaydigan, huquqiy aniqlik va institutsional hisobdorlikka tayangan kompleks mexanizm sifatida qaror topadi.